

ADABIYOT DARSLARIDA IJODIY O'YINLARNING O'RNI

Urganch davlat universiteti

Adabiyotshunoslik: o'zbek

adabiyoti 2-bosqich magistranti

Ag'ajonova Soliyajon

Kalit so'zlar: ijodiy o'yinlar, ertak, qahramon, metod, syujet, badiiy asar.

Annotatsiya: ushbu maqolada adabiyot darslarida mavzularni o'zlashtirish jarayonida o'quvchilarning ijodiy qobiliyatini rivojlantirish, ijodkor o'quvchilarni to'g'ri yo'naltirishda foydalanish mumkin bo'lgan metodlar tahlil qilinadi.

Adabiyot darslarida o'quvchilar ma'naviyatini yuksaltirishda ijodiy fikrashi, mustaqil bilim egallash ko'nikmalarini shakllantirish hamda rivojlantirishlari, mavjud bilimlarni, ko'nikma va malakalarini turli vaziyatlarda qo'llay bilishlarida syujetli-rolli o'yinlardan foydalanish mumkin. Adabiy ta'limda qo'llaniladigan syujetli-rolli o'yinlar badiiy asarlarda ilgari surilgan asosiy g'oyani badiiy ko'rinish tarzida yoritish asosida vujudga kelgan muammolarni o'quvchilarning o'zlaridagi bilim zahiralariga tayangan holda, hamkorlikda, bosqichma-bosqich hal etishida yangi bilimlarni egallahga qaratilgan didaktik o'yinlar ta'lim-tarbiya jarayonida o'rni beqiyosdir. Odatta o'yinlar syujeti jamiyatdan, odamlar hayotidan yoki tabiatdan olinadi. Ba'zida jamiyat va tabiatdagi muammolar uyg'unlashtirilib beriladi. O'qituvchi bu didaktik o'yinlarni o'tkazish uchun quyidagilarni amalga oshirishi nazarda tutiladi:

- badiiy asarda ko'tarilgan hayotiy muammoni aniqlash;
- dars ssenariysini o'quvchilar bilan hamkorlikda tuzish;
- rollar va vazifalarni o'quvchilar o'rtasida taqsimlash;
- muammoni hal etish yo'llarini belgilash.

O'quvchilarning ijodiy izlanishi, tafakkur va faoliyatdagi mustaqilligi, mantiqiy mulohaza yuritish qobiliyatlarini rivojlantirishda, qo'shimcha bilim olishga bo'lgan ehtiyojlarini qondirishda ijodiy o'yinlarsiz bo'la olmaydi. Ta'lim

jarayonida vujudga keltirilgan muammoli vaziyatlarni o'quvchilar guruhining o'zaro hamkorlikda avval o'zlashtirgan bilim, ko'nikma va malakalarni ijodiy qo'llash hamda izlanishi orqali hal etishga zamin tayyorlaydigan didaktik o'yinlarni ijodiy o'yinlar deyish mumkin. Adabiyot darslaridagi ijodiy o'yinlarda har bir "mutaxassis"ning o'z ijodiy izlanish yo'nalishi bo'lib, fanga o'ziga xos yangilik kiritadi, ya'ni o'zicha kashfiyat qiladi.

Masalan, 6-sinf adabiyot darsligida berilgan "Shum bola" qissasi yuzasidan: "Folklorshunos" – asardagi xalq og'zaki ijodi namunalarini, mazmun-mohiyati o'rganadi; "Adabiyotshunos" – badiiy asarning tili, uslubi, janr xususiyatlarini aniqlaydi, matnga adabiyotshunoslik nuqtai nazaridan yondashadi; "Tilshunos" – badiiy asrda til vositalarining qo'llanilishi, shevaga xos so'zlar, ularning xususiyatlarini topib tahlil qilishi mumkin. Qo'shimcha tariqasida 7-sinf adabiyot darsligida Muhammad Ali qalamiga mansub "Gumbazdag'i nur" asari yuzasida – "Tarixchi" – bunda o'quvchilar o'tmishda yashab o'tgan buyuk shaxslar, tarixiy joy nomlarini topishi, tarixiy voqealarini izohlashi mumkin;

O'quvchilarni ijodga undovchi didaktik o'yinlarning turli-tuman. Masalan: Odil Yoqubovning "Yaxshilik" hikoyasiga qo'shimcha voqealarini qo'shish. Bunda o'quvchilar hikoyani yanada qiziqarliroq bo'lishi uchun ijodiy yondashishga harakat qilishadi. Didaktik o'yinlarni uyga vazifa tariqasida berish o'quvchini mustaqil izlanishga chorlaydi. "Yaxshilik" hikoyasini uyda davom qildirish jarayonida o'quvchilar asar voqealarini hayot bilan, boshqa asardagi voqealar bilan solishtirishga urinadi. O'quvchilar topshiriqni "Yaxshilik" hikoyasi mening talqinimda sarlavhasi ostida davom qildirib yozib keklihlari mumkin.

O'quvchilar nima yaratishidan qat'i nazar, ko'pincha inson mantiqiy fikri emas, xayolotining mahsuli bo'ladi. Bolalarning esa fantaziysi o'ta kuchli. Bundan adabiyot darslarida unumli foydalana bilish kerak. Tanish ertak syujeti asosida yangi ertak yaratish, ya'ni o'sha qahramonlar ishtirokida boshqa ertak to'qish, mavjud qahramonlarning nomlarini almashtirib yangi matn yaratish, xotira bilan o'ynash – so'zlar va hodisalarini eslash, sinfda hikoyachi rolini bajarish – o'ylab topilgan voqeani aytib berish singari ijodiy ishlar dan ham didaktik o'yinlar

sifatida foydalanish mumkin.

Bunday ertak to‘qish, hikoyachi o‘rnini egallash singari mashg‘ulotlar jarayonida o‘qituvchilar o‘quvchilarning ijodini, u qanday bo‘lishidan qat’i nazar, yozib borishi katta samara beradi. Bola ustozining biror narsani o‘zgartirib yozmaganligi, tushirib qoldirmaganini nazorat qiladi. Bu unga o‘z so‘zi, yaratig‘i e’tiborsiz qolmaganini anglatadi. Bulardan tashqari, darstaxtaga birini ko‘rsatib, ikkinchisini ko‘rsatmay ikki so‘z yozish (ikkinchisining ustini yopib qo‘yish), shu so‘zlar asosida hikoya tuzishni talab qilish ham mumkin. Masalan, yorug‘lik-(qalam), shkaf-(it) so‘zlar juftligi ishtirokida hikoya tuzish talab qilinganda yosh ijodkorlar so‘zlar juftligidagi ikkinchi so‘zning nimaligini bilmaydilar. Shu so‘zni qidirib dunyo dunyo voqealarni aytib yuborganliklarini o‘zlari ham sezmay qoladilar. Kimning ertagida mana shu ikki so‘z ham ishtirok etganini o‘qituvchi belgilab boradi va o‘yinning oxirida buni yuzaga chiqaradi. Bu o‘yindan maqsad berkitilgan so‘zni topish emas, bolalarni ijodga, uning uchun o‘ta foydali bo‘lgan mashg‘ulotga undashdan iborat.

Xulosa qilib aytganda, didaktik o‘yinlar ham mazmun-mohiyati bilan shaxs shakllanish jarayoniga ma’lum darajada ijobiy ta’sir ko‘rsatadi. Bunda o‘quvchilar o‘zlari mustaqil fikrlashga, ijod qilishga harakat qilishadi. O‘quvchilar berilayotgan voqealarga uyg‘unlikni izlashga intilishadi. Ijodiy tafakkurini yuksaltirishda maktab darsliklarida berilgan asarlar muhim yo‘llanma bo‘la oladi.

Foydalanimanligi adabiyotlar:

- 1.Hasanboyeva Q, Nizyozmetova R. Adabiyot o‘qitish metodikasi. O‘quv qo‘llanma. Toshkent-2018
- 2.Matjonov S. Maktabda adabiyotdan mustaqil ishlar.– T.: “O‘qituvchi”, 1996.

3 O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2017-yil 6-apreldagi “Umumiyl o‘rta ta’lim va o‘rta maxsus, kasb-hunar ta’limining davlat ta’lim standartlarini tasdiqlash to‘g‘risida”gi 187-son qarori.

4. Umumiyl o‘rta ta’lim maktablarining 6-sinfi uchun darslik. Z.Mirzayeva, K.Jalilov. Respublika ta’lim markazi, Toshkent-2022